



**NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHASINI  
ISHLAB CHIQUISH VA KELISHISHNING YAGONA  
ELEKTRON TIZIMI**

**ID-8831 (V-2)**

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori**

**Vazirlar Mahkamasining “Mehnat normalarini ishlab chiqish va joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 24-iyuldagi 465-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida**

Davlat tashkilotlarida outsorsing xizmatlarini rivojlantirish, mehnat normalarini ishlab chiqishni takomillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

1. Vazirlar Mahkamasining “Mehnat normalarini ishlab chiqish va joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 24-iyuldagi 465-son qaroriga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

outsorsing xizmatlarini rivojlantirish va raqamlashtirish orqali ayrim yordamchi xodimlar toifasiga mansub shtat birliklarini qisqartirish;

davlat tashkilotlarida shtat birliklarini belgilashda amaliyotda vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish.

2. Barcha byudjet tashkilotlari (xodimlar soni normasi alohida qonunchilik bilan belgilangan tashkilotlar bundan mustasno) ikki hafta muddatda ushbu qarorga asosan shtatlar jadvaliga o‘zgartirishlarni kiritib, tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J.A. Qo‘chqorov hamda kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri B.E. Zaxidov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining  
Bosh vaziri**

**A. ARIPOV**



**Vazirlar Mahkamasining “Mehnat normalarini ishlab chiqish va joriy qilish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 24-iyuldagi 465-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

Ilovada:

a) 15-bandda:

uchinchi – to‘qqizinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Yordamchi xodimlar toifasiga mansub shtat birliklarini belgilashda:

birinchi, yordamchi xodimlar shtat birliklarining umumiy soni 2-ilovaga muvofiq aniqlanadi;

ikkinchi, yordamchi xodimlar shtat birliklariga lavozim va kasblarni kiritishda 1-ilovadagi namunaviy normalarga amal qilinadi;

uchinchi, yordamchi xodimlar shtat birliklarining umumiy sonining qolgan miqdori bo‘yicha 1-ilovada ko‘rsatilmagan yordamchi xodimlar toifasiga mansub lavozim va kasblarning mehnat normalari ishlab chiqilib, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda joriy etilishi mumkin.

Yordamchi xodimlar shtat birliklari jami soni 2-ilova shartlariga asosan aniqlanadigan yordamchi xodimlar shtat birliklarining umumiy sonidan oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xodimlar shtat birliklarining umumiy sonidagi yordamchi xodimlarning ushbu nizomga 2-ilovada keltirilgan chegaraviy me‘yorlari ishlab chiqilgan mehnat normalaridan kelib chiqib, 10 foizgacha oshirilishi mumkin.

Ushbu bandeda belgilangan mehnat normalari va talablar davlat tashkilotlari uchun majburiy, boshqa tashkilotlar uchun, shuningdek davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalarda tavsiyaviy hisoblanadi”;

b) 1-ilovada:

“Yengil avtomobil haydovchisi” pozitsiyasining “Shtat birligini kiritish normalari va shartlari” ustunidagi to‘rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“navbatchi avtomobillar uchun 1,5 shtat birligidan (1,5 smenada)”;

“Ruxsatnomalar byurosi navbatchisi” pozitsiyasining “Shtat birligini kiritish normalari va shartlari” ustuni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ehtiyoj bo‘lganda bir smenali ish uchun bitta tashkilotga 1 shtat birligi (respublika va hududiy (viloyat) tashkilotlarda kiritish mumkin). Bunda, mazkur shtat birligi 2027-yil 1-yanvardan boshlab raqamlashtirish hisobiga kiritilmaydi”;

“Elektromontyor” pozitsiyasi chiqarib tashlansin;

“Chilangar-santexnik” pozitsiyasi chiqarib tashlansin;

“Lift bo‘yicha texnik” pozitsiyasi chiqarib tashlansin;

“Binolarga kompleks xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash bo‘yicha ishchi” pozitsiyasining “Shtat birligini kiritish normalari va shartlari” ustunida:

birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlari soni 50 shtat birligidan oshgan tashkilot uchun 1 shtat birligi”;

ikkinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

“Ish yurituvchi” pozitsiyasining “Shtat birligini kiritish normalari va shartlari” ustunidagi “boshqaruv” so‘zidan keyin “va ishlab chiqarish” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

“Rahbar kotibi (referent-kotib)” pozitsiyasining “Shtat birligini kiritish normalari va shartlari” ustunidagi “hududiy (viloyat) tashkilotlarda” so‘zlaridan keyin “hamda tuman (shahar) hokimliklarida” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

“G‘aznachi (kassir)” pozitsiyasi chiqarib tashlansin;

“Kompyuter texnikasiga texnik xizmat ko‘rsatish texnigi (muhandis)” pozitsiyasi chiqarib tashlansin;

izohlar qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu jadvalda ko‘rsatilmagan yordamchi xodimlar toifasiga mansub lavozim va kasblarning shtat birliklariga ehtiyojlar (xizmatlar) birinchi navbatda autsorsing asosida ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi hamda buning imkoni bo‘lmaganda mehnat normalari ishlab chiqilib, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda joriy etilishi mumkin.

\* Yordamchi xodimlarning lavozim va kasblarini joriy qilish tegishli ish sharoitlari mavjud bo‘lgan taqdirda, ish vaqtidagi to‘liq yuklanganlikni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

\*\* Binoni (xonani) ijaraga olayotganda, ushbu lavozimlar iqtisodiyot va moliya organlari bilan kelishilgan holda (ijara shartnomasini ko‘rsatgan holda)

kiritilishi mumkin.

\*\*\* Ish yuritish uchun mas'ul bo'lgan boshqa lavozimdagi xodim (devonxona) bo'lmasa, bandlik organlari hamda iqtisodiyot va moliya organlari bilan kelishilgan holda kiritilishi mumkin”;

d) 2-ilovada:

izohlar qismi quyidagi tahrirdagi 5-bandi bilan to'ldirilsin:

“5. Boshqaruv xodimlariga nisbatan yordamchi xodimlar soni mutanosibligini hisoblash me'yorlarini hisoblashda 1-ilovadagi shtat birliklarini kiritish normalari va shartlari doirasida:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar hokimlari hamda ularning o'rinbosarlariga haydovchi va rahbar kotibi;

balansida binosi mavjud bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari hamda tuman (shahar) hokimliklari va boshqa davlat organlarining hududiy hamda tuman (shahar) bo'linmalari xizmat xonalari farroshi, qorovul va qozonxona operatori shtat birliklari (lavozimlari) kiritilmaydi”.